



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

FORMATION OF SOCIAL RESPONSIBILITY OF YOUTH IN THE FAMILY BASED ON NATIONAL VALUES

Guzal Makhkambayevna Ergasheva

Associate Professor of the Department of Psychology and Pedagogy

International School of Finance, Technology and Science

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: family, family education, education of youth, social responsibility, national values, personal development, spiritual and moral education, traditions, customs, harmonious generation, society, patriotism.

Received: 14.09.25

Accepted: 15.09.25

Published: 16.09.25

Abstract: The article analyzes the significance of national values and considers the issues of forming social responsibility of an individual in a family on their basis. The importance of forming such qualities as awareness of one's duty to society, hard work, high spirituality through national traditions, customs, family relations and spiritual education is shown. Attention is also paid to the role of effective application of national values in the process of family education in raising a harmonious generation. The effectiveness of this process is illustrated by scientifically based approaches and examples from practice.

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA OILADA YOSHLAR IJTIMOY MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISH

Go'zal Maxkambayevna Ergasheva

«International School of Finance Technology and Science» instituti

"Psixologiya va pedagogika" kafedrası dotsenti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: oila, oila tarbiyasi, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy mas'uliyat, milliy qadriyatlar, shaxs rivoji, ma'naviy-axloqiy tarbiya, an'ana, urf-odat, barkamol avlod, jamiyat, vatanparvarlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy qadriyatlarning ahamiyati va ular asosida oilada shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Milliy an'analar, urf-odatlar, oilaviy munosabatlar va ma'naviy tarbiya orqali shaxsning jamiyat oldidagi burchni anglash, mehnatsevarlik, yuksak ma'naviyat kabi fazilatlarni shakllantirish muhimligi ko'rsatiladi.

Shuningdek, oiladagi tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning samarali qo'llanilishi orqali barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni e'tibor qaratilgan. Ilmiy asoslangan yondashuvlar va amaliyotdan olingan misollar orqali bu jarayonning samaradorligi yoritilgan.

ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ МОЛОДЕЖИ В СЕМЬЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Гузаль Махкамбаевна Эргашева

доцент кафедры психологии и педагогики

Института международной школы финансов, технологий и науки

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: семья, семейное воспитание, воспитание молодежи, социальная ответственность, национальные ценности, развитие личности, духовно-нравственное воспитание, традиции, обычаи, гармоничное поколение, общество, патриотизм.

Аннотация: В статье анализируется значение национальных ценностей и рассматриваются вопросы формирования социальной ответственности личности в семье на их основе. Показана важность формирования таких качеств, как осознание своего долга перед обществом, трудолюбие, высокая духовность через национальные традиции, обычаи, семейные отношения и духовное воспитание. Также уделяется внимание роли эффективного применения национальных ценностей в процессе семейного воспитания в воспитании гармоничного поколения. Эффективность этого процесса иллюстрируется научно обоснованными подходами и примерами из практики.

Kirish. Har bir jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligi, eng avvalo, uni tashkil etuvchi a'zolar — insonlar, ularning dunyoqarashi, ma'naviyati va ijtimoiy mas'uliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida inson omili, xususan, uning ijtimoiy mas'uliyati, fuqarolik pozitsiyasi va ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shaxsning ijtimoiy mas'uliyati — bu uning jamiyat oldidagi burchi, o'z harakatlarining oqibatiga nisbatan ongli munosabati va faol fuqarolik tuyg'usidir. Qisqacha qilib aytganda, shaxsning ijtimoiy mas'uliyati — bu uning o'z faoliyati va xulq-atvorini jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan baholay olishi, o'z harakatlarining oqibatlari uchun javobgarlik hissiga ega bo'lishi demakdir. Bu sifatlar insonda o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Ular, avvalo, uning shakllanish muhiti — oiladagi tarbiya, qadriyatlarga munosabati va milliy an'analarga asoslangan ijtimoiy muhit ta'sirida vujudga kelib, oilada shakllanadi.

Oila — nafaqat jamiyatning birinchi bo‘g‘ini, balki shaxsni har tomonlama tarbiyalashda beqiyos o‘rniga ega maktab hisoblanadi.

Oila – shaxs tarbiyasidagi birinchi va eng muhim institut sifatida insonning kelajakdagi hayotiy pozitsiyasini, jamiyatga bo‘lgan munosabatini, mehnat va fuqarolik burchini qanday anglashini shakllantiradi. O‘z navbatida, oilada qo‘llaniladigan tarbiyaviy uslublar, ma‘naviy-ma‘rifiy muhit, urf-odat va an‘analar shaxsning dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini belgilaydi.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analar har bir shaxsning ma‘naviy dunyoqarashini, axloqiy normalarga bo‘lgan munosabatini belgilab beradi. Shu ma‘noda, oilada milliy qadriyatlar asosida ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirish nafaqat shaxs, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu maqolada ana shu jarayonning mohiyati, uning zamonaviy sharoitdagi ahamiyati va tarbiyaviy jihatlari tahlil qilinadi.

Milliy qadriyatlar — bu har bir millatning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, ma‘naviy merosi, urf-odatlari, diniy va axloqiy qarashlarini o‘z ichiga olgan qadimiy poydevordir. Ular nafaqat millatning o‘ziga xosligini saqlab qolish, balki yangi avlodni tarbiyalashda me‘yor sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya orqali yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, jamiyatga mansublik hissi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda axborot xuruji, g‘oyaviy tahdidlar, yot g‘oyalar ta’siri ostida yoshlarning ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladigan asosiy maskan — bu oila hisoblanadi. Shuning uchun oilada milliy qadriyatlarga tayanilgan holda ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirish — nafaqat shaxsiy, balki umumjamiyat manfaati uchun ham muhim vazifadir. Zero, ijtimoiy mas‘uliyatli, ma‘rifatli, faol fuqarolardan iborat jamiyat — barqaror va taraqqiy etuvchi jamiyatdir.

Ushbu maqolada milliy qadriyatlar nimadan iborat ekanligi, ularning oila tarbiyasida tutgan o‘rni, ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirishdagi ta’sir omillari hamda bu jarayonning zamonaviy ahamiyati ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Har qanday jamiyatda barqaror taraqqiyotning kafolati — ma‘nan yetuk, ijtimoiy mas‘uliyatli avlod tarbiyasi hisoblanadi. Bu jarayonda eng ta’sirli ijtimoiy institut — oila sanaladi. Oilaning mazkur vazifadagi o‘rni, nafaqat amaliyot, balki nazariy jihatdan ham ko‘plab tadqiqotlar va manbalarda o‘z ifodasini topgan. Ushbu maqolada ana shunday ilmiy, huquqiy va xalqaro adabiyotlar tahlil qilinib, oilaning yoshlarda ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirishdagi vazifalari ochib beriladi.

Milliy qadriyatlar, oila tarbiyasi va shaxsning ijtimoiy mas‘uliyati masalalari yuzasidan turli ilmiy yo‘nalishlarda, xususan, pedagogika, psixologiya, falsafa va sotsiologiya sohalarida bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu manbalardagi ilmiy yondashuvlar, nazariy

kontseptsiyalar va amaliy tavsiyalar milliy qadriyatlarning ijtimoiy tarbiyadagi o'rnini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, ma'rifiy fikr egalaridan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Axmad Yugnaki, Jamoliddin Avfiy kabi mutafakkirlar asarlarida tarbiya, axloq va insoniy fazilatlar masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Forobiyning "Fozil shaxar ahli" asarida jamiyatda ma'naviy muvozanatni saqlash, fuqarolarni ezgulikka undash va axloqiy tarbiyaning ustuvorligi haqida muhim g'oyalar bayon etilgan. Bu g'oyalar, avvalo, oila muhitida amaliy qo'llanilishi lozim bo'lgan qadriyatlardir.

Islom ta'limotida ham oila tarbiyasi va ijtimoiy mas'uliyat markaziy o'rinni egallaydi. Qur'oni karim va hadislarda oiladagi o'zaro mas'uliyat, farzand tarbiyasi va jamiyat oldidagi burch haqida aniq ko'rsatmalar mavjud. Masalan, "Har biringiz mas'ulsiz va qo'l ostidagingiz uchun javobgardirsiz" (Hadis) degan tamoyil — ijtimoiy mas'uliyatni eng sodda va mazmunli tarzda ifoda etiladi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda ham bu masala dolzarb ahamiyatga ega. Masalan:

- A.Abdurahmonov, N.Norqobilov, Q.Qudratov kabi olimlar o'z tadqiqotlarida milliy tarbiya modellarining shakllanishida qadriyatlarning tarbiyaviy salohiyatini ilmiy asosda tahlil qilganlar.

- T.To'raev va Sh.Toshpo'latova tomonidan yozilgan ilmiy ishlar oilaviy qadriyatlar va yosh avlod tarbiyasida ma'naviyatning roliga bag'ishlangan bo'lib, ijtimoiy mas'uliyatning yoshlikdan shakllantirilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, o'zbek pedagog olimlari tomonidan amalga oshirilgan tahlillarda milliy o'zlik, an'ana va urf-odatlarining ijtimoiy tarbiyadagi amaliy qo'llanilishi yoritilgan.

Shuningdek, xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ham oila tarbiyasi va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi bog'liqlik keng o'rganilgan.

Amerikalik psixanalitik E.Erikson o'zining shaxsiy rivojlanish nazariyasida shaxsning ijtimoiy rivojlanishi uning bolalikda olgan tarbiyasi va atrof-muhit bilan munosabatiga bog'liq ekanligi qayd etilgan. Bu esa milliy qadriyatlar asosidagi tarbiyaning o'rni va ta'sirini yanada asoslab beradi.

E.Erikson yoshlik davrida shaxsda ijtimoiy burch tuyg'usi va shaxsiy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanat shakllanishini ko'rsatadi. Unga ko'ra, oilaning emotsional qo'llab-quvvatlovi va tartib-intizomga asoslangan munosabati shaxsning ijtimoiy maqsadlarga intiluvchanligiga zamin yaratadi. Uning nazariyasida yoshlik davri — shaxsiylik va ijtimoiylik o'rtasidagi muvozanatni topish davri sifatida ko'riladi. Unga ko'ra, bu bosqichda oilaning qo'llab-quvvatlovchi roli yoshlarning ijtimoiy funktsiyalarni qabul qilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbek pedagog olimi J.Qurbonov o'z tadqiqotlarida oilaning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyatini yoritgan ekan, unda yoshlarning dunyoqarashi, mas'uliyati va fuqarolik pozitsiyasi qanday shakllanishini tahlil qiladi. Tadqiqotchi oila fuqarolik jamiyatining tayanchi bo'lib, uning muvaffaqiyati oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'zbek pedagog olimasi N.Abdullaeva o'zining "Yoshlar va ijtimoiy institutlar: o'zaro munosabatlar tahlili" (2021) nomli monografiyasida yosh shaxs ijtimoiylashuvida oila, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining ta'sirini chuqur o'rganadi. Oilaning asosiy vazifasi — yoshlarda javobgarlik, intizom, faol fuqarolik hissini shakllantirish ekanini ta'kidlaydi. N.Abdullaevaning fikriga ko'ra, oiladagi munosabatlar modeli keyinchalik yoshlarning jamiyatda tutgan o'rniga bevosita ta'sir qiladi. Muallif fikriga ko'ra, oiladagi demokratik muhit, farzandning fikriga hurmat va shaxsiy mas'uliyat yuklash usullari uning kelajakdagi ijtimoiy faolligiga asos bo'ladi.

Boshqa tomondan, ba'zi tadqiqotchilar globallashtirish, internet ta'siri, modernizatsiya jarayonlari natijasida yoshlarda milliy qadriyatlardan uzoqlashish, ijtimoiy mas'uliyatsizlik, individualizm tendentsiyalari kuchayib borayotganini ham qayd etadilar. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa ilmiy asoslangan, milliy qadriyatlarga tayangan tarbiya strategiyalari ishlab chiqilishi lozim.

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, milliy qadriyatlar asosidagi oilaviy tarbiya shaxsda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayonda ilmiy-nazariy yondashuvlar, ta'limotlar va amaliy tavsiyalardan samarali foydalanish — barkamol va ma'naviyatli shaxs tarbiyasiga zamin yaratadi.

Metodlar: tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

Muhokama. Jamiyat taraqqiyotida shaxsning ijtimoiy mas'uliyati muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu mas'uliyat shaxsning o'z burchini to'liq anglashi, jamiyat oldidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, boshqalar manfaatini e'tiborga olib faol fuqarolik pozitsiyasida turishi bilan namoyon bo'ladi. Shaxsda bunday xislatlarning shakllanishi, avvalo, uning dastlabki ijtimoiy muhiti — ya'ni oiladagi tarbiya, qadriyatlarga bo'lgan munosabati bilan bog'liq.

Milliy qadriyatlar — har bir xalqning ma'naviy tayanchi, ma'rifat va axloq tarbiyasining asosidir. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari – bu mehnatsevarlik, vatanparvarlik, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmonnavozlik, oilani muqaddas tutish, himmatlilik, or-nomus kabi fazilatlaridir. Bunday qadriyatlar oila muhitida har kuni amaliy hayot tarzida aks etgan ekan, bolada ijtimoiy mas'uliyatning ilk ko'rinishlari – masalan, uy ishlarida ishtirok etish, kattalarga yordam berish,

soʻz va amalning javobgarligini his qilish, boshqalarga yordam berishga intilish kabi sifatlar shakllana boshlaydi.

Oila – ijtimoiy tarbiyaning birinchi boʻgʻini hisoblanadi. Oila nafaqat tarbiya maskani, balki milliy qadriyatlarning tashuvchisi va avloddan-avlodga yetkazuvchisidir. Oilada bolalarni milliy anʼanalar va urf-odatlar asosida tarbiyalash orqali ularda jamiyat hayotida faol qatnashishga tayyorlik, oʻzini manfaatdor jamoaning bir qismi sifatida his qilish, umumiy qoidalarga rioya qilish kabi ijtimoiy masʼuliyat elementlari shakllanadi.

Amaliyotdagi kuzatishlarga qaraganda, milliy qadriyatlarga tayanadigan oilalarda tarbiyalangan yoshlarda faol fuqarolik, mehnatga muhabbat, jamoaviylik, ota-onaga va jamiyatga hurmat hissi kuchli boʻladi. Aks holda, qadriyatlardan uzoqlashgan muhitda voyaga yetgan shaxslarda individualizm, masʼuliyatsizlik, jamiyatga befarqlik holatlari kuzatiladi.

Shaxsda ijtimoiy masʼuliyat shakllanishiga quyidagi omillar taʼsir qiladi:

- Tarbiya uslubi – ota-onalarning bolaga boʻlgan munosabati, talabchanlik darajasi, faol muloqot, mehr va nazorat muvozanati muhimdir.

- Qadriyatlar asosidagi ibrat – farzand ota-onaning faqat soʻzlaridan emas, balki amaliy faoliyatidan ibrat oladi.

- Muhit – mahalla, taʼlim muassasasi, OAV va internetdagi axborot makoni shaxsning ijtimoiy qarashlariga taʼsir koʻrsatadi.

- Ijtimoiy adolat va imkoniyatlar – shaxs oʻz jamiyatida qiymatli va zarur shaxs ekanini his qilsa, javobgarlik hissi kuchayadi.

Soʻnggi yillarda globallashuv, axborot oqimi va yot gʻoyalarning yoshlar ongiga taʼsiri ortib bormoqda. Bu esa ularda milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik, madaniy tanazzul, masʼuliyatsizlik kabi holatlarga olib kelmoqda. Baʼzan ota-onalarning oilaviy qadriyatlarni yetkazishda sustligi, tarbiyani faqat taʼlim muassasalari zimmasiga yuklashi ham bu jarayonga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Ayrim hollarda ijtimoiy tarmoqlardagi virtual hayotga berilib ketish, shaxsiy manfaatlarni yuqori qoʻyish, real jamiyatdagi burchlardan uzoqlashishga olib kelmoqda. Bunday holatlar ijtimoiy masʼuliyatsizlikning koʻrinishidir.

Milliy qadriyatlarga tayangan holda shaxsda ijtimoiy masʼuliyatni shakllantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- Ota-onalar uchun tarbiyaviy-maʼrifiy treninglar tashkil etish;
- Taʼlim muassasalarida “milliy qadriyatlar va shaxs masʼuliyati” mavzusida maxsus kurslar tashkil qilish;
- Mahalla va jamoatchilikning yoshlar tarbiyasidagi ishtiroki va masʼuliyatini kuchaytirish;
- OAV orqali ijobiy ibratlar, milliy obrazlar, tarbiyaviy koʻrsatuvlar sonini oshirish;

- Milliy qadriyatlarga asoslangan axborot makonini yaratish (bloglar, maqolalar, podkastlar, videokontentlar).

Muhokama asosida aytish mumkinki, milliy qadriyatlar asosida oilada tarbiyalangan shaxs o'z burchini anglaydigan, faol, mas'uliyatli va vatanparvar fuqaro sifatida shakllanadi. Bu jarayonda oila, ta'lim, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari hamkorlikda ishlashi lozim. Milliy o'zlikni anglagan, ma'naviyati yuqori, mas'uliyatli avlod — barqaror jamiyat poydevoridir.

NATIJALAR. Oilaning yosh avlod tarbiyasidagi roli, ularda javobgarlik hissini uyg'otishdagi ta'siri va jamiyatda munosib faol shaxs sifatida shakllanishidagi o'rnini atroflicha yoritish mumkin.

Oila – inson hayotidagi birinchi va eng muhimi ijtimoiy muhit hisoblanadi. Har qanday yosh inson, birinchi navbatda, ota-onasidan hayotga oid qarashlar, qadriyatlar va mas'uliyat hissini oladi.

Milliy qadriyatlar asosida oilada shaxs ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish borasida amalga oshirilgan ilmiy izlanish tahlillari, nazariy yondashuvlar va amaliy misollar asosida quyidagi muhim natijalar aniqlandi:

1. Milliy qadriyatlar ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda asosiy tarbiyaviy resursdir. Tarixiy, madaniy va ma'naviy meros sifatida milliy qadriyatlar oilada shaxsning faol fuqarolik pozitsiyasini, insoniylik tuyg'ularini, mehnatsevarlikni, mas'uliyatni va jamiyat oldidagi burchini anglashni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Qadriyatlar shaxsning faqat ichki dunyosiga emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy roliga ham ta'sir ko'rsatadi.

2. Oila — ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda birlamchi muhit sifatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oila shaxs tarbiyasida birinchi va uzluksiz ta'sir qiluvchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi, munosabatlar madaniyati, farzandga bo'lgan talabchanlik va g'amxo'rlik muvozanati bolada ijtimoiy normalarni qabul qilish, o'z vazifalarini anglash va javobgarlikni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. SHu bois, oilada milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya – ijtimoiy mas'uliyatning asosiy poydevori hisoblanadi.

3. Shaxsda ijtimoiy mas'uliyat shakllanishida kompleks yondashuv zarur. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy mas'uliyatni faqat oila muhitida tarbiyalash yetarli emas. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, mahalla, diniy tashkilotlar, OAV, ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilikning hamkorligi muhim. Kompleks tarzda milliy tarbiya, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy anglashuv o'rtasida uzviy bog'liqlik yaratilishi lozim.

4. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyat muvozanatini saqlash muhim vazifadir. Zamonaviy axborot makonidagi keskin o'zgarishlar, yot g'oyalar va individualistik yondashuvlar yosh avlod ongida milliy qadriyatlardan uzoqlashish va shaxsiy mas'uliyatni inkor qilish tendentsiyalarini kuchaytirishi mumkin. Bunday tahdidlarning oldini

olish uchun milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy immunitetni shakllantirish, ma'rifiy tarbiyani kuchaytirish va axborot makonida milliy identichlikni mustahkamlash zarur.

5. Ijtimoiy mas'uliyat – faqat shaxsiy fazilat emas, balki jamiyat barqarorligining kafolatidir. Ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmaydi, faol fuqarolik pozitsiyasida turib, mamlakat rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Demak, bunday fazilatlarni bolalikdan oila muhitida shakllantirish — keng qamrovli ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik jamiyati va demokratik qadriyatlarning mustahkam poydevoridir.

6. Amaliyotda milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimini yanada rivojlantirish talab etiladi. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ba'zi oilalarda milliy qadriyatlarning tarbiyaviy rolini anglash past darajada. Shuning uchun ota-onalarni o'qitish, ularga metodik yordam ko'rsatish, ommaviy ma'rifiy ishlar orqali bu jarayonni qo'llab-quvvatlash zarur. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyat mavzusini keng qamrovli, integrativ yondashuvda o'qitish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan shaxs jamiyat oldidagi burchini anglaydigan, o'zini xalq va Vatan manfaatiga xizmat qiluvchi mas'uli shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Oiladagi tarbiya, ta'limdagi yondashuv va jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashi orqali ijtimoiy mas'uliyatli, ma'rifatli va vatanparvar avlodni tarbiyalash imkoni yaratiladi. Bu esa barqaror, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan sog'lom jamiyat poydevorini mustahkamlaydi.

Xulosa. Milliy qadriyatlar har bir xalqning ma'naviy dunyoqarashi, falsafiy qarashlari, madaniyati va urf-odatlarini ifoda etuvchi ijtimoiy-tarbiyaviy me'yorlar majmuasidir. Ular insonning shaxs sifatida kamol topishida, uning jamiyatdagi ijtimoiy vazifalarini anglashida va o'z burchlarini mas'uliyat bilan bajarishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, shaxsda ijtimoiy mas'uliyat hissining shakllanishida oila hal qiluvchi o'rin tutadi. Oiladagi muhit, ota-onaning shaxsiy namunasi, munosabatlar madaniyati, qadriyatlarga bo'lgan munosabat va tarbiyaviy yondashuvlar insonning ijtimoiy normalarga rioya qilish qobiliyatini, o'z harakatlarining oqibatlari uchun javobgarlikni his qilishini belgilaydi.

Milliy qadriyatlarga suyangan holda tarbiyalangan shaxs:

- jamiyat oldidagi burchini anglaydi;
- o'z oilasi, mahallasi va Vatan taqdiriga befarq bo'lmaydi;
- faol fuqarolik pozitsiyasida turib, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etadi;
- mehnat, ta'lim, axloq, vakillik, inson huquqlari kabi sohalarda mas'uliyatli munosabatda bo'ladi.

Zamonaviy globallashuv, axborot oqimi va individualistik qarashlar avj olayotgan bir paytda, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya — shaxsni ichki jihatdan barkamol, ma'naviy

jihatdan mustahkam va ijtimoiy mas'uliyatli qilib tarbiyalashning eng samarali usuli ekanligi yana bir bor isbotini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Oila" to'g'risidagi Qonuni. – T.: "Adolat", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy qadriyatlarini yanada rivojlantirish va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – T.: 2022.
3. Abdurahmonov A. Milliy qadriyatlar va ma'naviy meros masalalari. – T.: "Fan", 2019.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy go'zal axloq. – T.: "G'afur G'ulom", 2017.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: "O'zbekiston", 2015.
6. Ibn Sino. Axloq ilmi haqida risolalar. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2016.
7. Qudratov Q. Milliy tarbiya va ijtimoiy faollik. – T.: "O'qituvchi", 2020.
8. Салаева М.С. Халқ маънавий мероси намуналарида оила аъзолари муносабатлари масаласининг ёритилиши // Маърифат ёғдуси. № 1. 2000. –Б. 58-60.
9. Салаева М.С. Ўтмиш мутафаккирларимиз ота-она ва фарзандлар муносабатлари хусусида // Маърифат ёғдуси. № 3. 2000.–Б. 76-80.
10. Салаева М.С. Ўзбек оилаларида болаларнинг ўз оиласидаги ҳаётга муносабатларининг этно-психологик хусусиятлари / «Ўзбек оиласининг иқтисодий ва ижтимоий психологик муаммолари» Республика илмий-амалий анжумани маърузалари тўплами. –ТДИУ. 24-25 май 2000 йил. –Б. 81-82.
11. Салаева М.С. Бола маънавиятини шакллантиришда ўзаро муносабатларнинг таъсири / «Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга ошириш шароитида ёш авлодни маънавий тарбиялаш шакл ва усуллари» Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т.: ЎзПФИТИ. 2001. –Б. 277-280.
12. Салаева М.С. Ўзбек оилаларида болаларнинг ўз оиласидаги ҳаётга муносабатларининг этно-психологик хусусиятлари // Педагогик таълим. №6. 2001. ТДПУ. –Б. 27-28.
13. Салаева М.С. Ўқувчиларнинг оиладаги ўзаро муносабатлари ва дарс // Халқ таълими. №1. 2002. –Б. 49-52.
14. Салаева М.С. Кичик мактаб ўқувчиларининг оила аъзоларига бўлган муносабатлари хусусиятлари /Ўқитишнинг педагогик-психологик муаммолари». Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. БухДУ. 2002. –Б. 86-87.
15. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o'rni // Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в

XXI веке». Выпуск №24/4. 2022. - С.751-754.

https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Mapт%202022.%20Том%204.pdf

16. Salaeva M.S., Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o'zaro hamkorligi // Problems And Scientific Solutions. - Australia, Melbourne. 2022. – B. 114-123. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226>

17. To'raev T., Toshpo'latova Sh. Oila va jamiyatda ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati. – Toshkent: "Muallim", 2021.

18. Yo'ldoshev H. Shaxs rivojida ijtimoiy muhitning roli. – T.: "Ijtimoiy fikr", 2022.

19. Erikson E. Shaxsiy rivojlanishning psixo-sotsial bosqichlari (tarjima). – T.: "Psixologiya", 2019.

20. Эргашева Г.М. Умуминсоний ва диний қадриятларни ёшларимиз онгига сингдиришда диалектиканинг роли // Мактабгача ва мактаб таълими. Педагогик, психометодологик ва табиий фанларга ихтисослашган илмий журнал №4/2025. 31-33 б.

21. Эргашева Г.М. Умуминсоний ва диний қадриятлар диалектикаси ёш авлод дунёқарашини шакллантириш ва юксалтиришдаги концептуал аҳамияти // Ажинияз номидаги Нукус давлат педагогика институти. "Илм ҳам жамият" илмий журнали. Июнь 2025. 10 б.

22. Эргашева Г.М. Воспитание эстетического вкуса младших школьников в учебно-воспитательном процессе / "Modern world education: new age problems – new solutions". Collection of scientific papers on materials of the international scientific-practical conference. 03.06.2025, Pub. "ICP", Paris, France, 140 стр.

23. Эргашева Г.М. Понятие воспитания, его сущность, виды и роль в формировании личности // "Science, Education, Innovation: Modern Tasks And Prospects". Collection of scientific papers on materials of the international scientific-practical conference. 05.06.2025, Pub. "ICP", Rome, Italy, 191 стр.

24. Ergasheva G.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirishning nazariy asoslari / Usa Advanced Methods Of Edsuring The Qualite Of Education Prodllems Fnd Solutions. International onllne conference. Date: 2025. 6 стр.

25. Ergasheva G.M. The significance of campistic pedagogy in training future teaching staff / Models And Methods In Modern Science International scientific -onllne conference. Date: 2024. 6 стр.

26. Эргашева Г.М., Абдурахмонова М.И. Ёш авлод дунёқарашини шакллантиришда умуминсоний қадриятларнинг ўрни / Prospects For Innovative Technologies In Science And Education. International online conference. 13th July -2025. - Pp.106.

27. Ergasheva G.M., Abduraxmonova M.I. Boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiyani tabiiy fanlar orqali shakllantirishning innovatsion yo'llari / "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarining zamonaviy tendensiyalari: muammolari, yechimlari, o'qitishning innovatsio yondashuvlari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Nizomiy nomidagi O'zMPU. 2025-yil 14-may. 514-522 bet.

28. Ergasheva G.M., Abduraxmonova M.I. Psychological Basis Of Forming A Socially Active Position In Students // International Bulletin Of Engineering And Technology Ibet. ISSN: 2770-9124. ugust IBET | Volume 4, Issue 1, January IBET. 241 - 244 bet.